

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING
2021/2022 O'QUV YILI NAVBATDAN TASHQARI YIG'ILISHI
BAYONI**

**2022-yil 21-aprel
Katta yig'inlar zali**

**Buxoro shahri
soat 14:00**

Raislik qildi:

O.X.Xamidov - kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, p.f.d., prof.

Ishtirok etganlar:

N.G.Dilova - kengash kotibi, p.f.f.d.,(PhD) dots.
BuxDU kengashi a'zolari umumiy soni:73 nafar
Qatnashdi: 69 nafar kengash a'zosi va taklif qilinganlar (ro'yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o'quv yilining 7-yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o'qituvchilar hamda turli tanlov g'oliblari taqdirlandi.

Kengash raisi bugungi 7 - kengash yig'ilishida 71 nafar kengash a'zosidan 65 nafari ishtirok etayotganligini, 6 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

KUN TARTIBI:

I. 2021/2022 o'quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo'nalishi bo'yicha:

1. Universitetda yo'nalishlar bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to'g'risida.

Ma'ruzachi: universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidov

II. O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:

2. 2021/2022 o'quv yili kuzgi semestri o'qitilgan fanlardan akademik qarzdor talabalar va ular bilan olib borilayotgan ishlar to'g'risida

Ma'ruzachi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.Jumayev

III. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopplaens nazorat" tizimini yo'nalishi bo'yicha:

3.1. Universitetda professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishini odini olish to'g'risida

3.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyudagi 6257-son Farmoniga ko'ra universitet fakultetlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida

Ma'ruzachi: Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Yo. K. Quliyev

IV. Raqamli iqtisodiyot va inson resurslarini boshqarish markazi yo'nalishi bo'yicha:

Buxoro davlat universiteti faoliyatini bosqichma-bosqich to'liq raqamlashtirish hamda «Uniwork» tizimi orkali ijro intizomini ta'minlash to'g'risida

Ma'ruzachi: *Raqamli iqtisodiyot va inson resurslarini boshqarish markazi rahbari B.Adizov*

V. Tanlovlar.

5.1. Kafedra mudiri, dotsent, katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimlariga tanlovlar to'g'risida
(*Kengash kotibi N.Dilova*)

VI. Turli masalalar.

6.1. Buxoro davlat universitetida Ilm-fan va innovatsiyalarni 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida

6.2. Kafedra professor-o'qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

6.3. Sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan Turkmaniston fuqarosi bo'lgan talabalarning o'qishini masofaviy shaklda qoldirish

6.4. Bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 2021-2022 o'quv yili uchun tasdiqlangan malaka talablari, o'quv va ishchi o'quv rejalari, o'quv dasturlarini taqdim etish to'g'risida

6.5. Doktorlik (PhD, DSc) dissertatsiya mavzusini tasdiqlash va ilmiy rahbarini tayinlash to'g'risida.

6.6. Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida.

6.7. Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi tayanch doktoranti Axmatova Mohigul Ergash qizi rahbarligida tayyorlangan "Buxoro shahridagi tarixiy obidalarga sayohat qilishda transport xizmatlarining mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani "Olima ayollar" tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanloviga tavsiya etish to'g'risida.

6.8. Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limida tashkil etilgan Holon Texnologiyalar Instituti bilan tashkil etilgan "Amaliy matematika" va "Kompyuter bilimlari" yo'nalishlari 3 kurs talabalarining 4 kurs o'qishini sentyabrdan davom ettirish to'g'risida

KENGASH REGLAMENTI

Axborotlar uchun
So'zga chiquvchilar uchun
Ma'lumotlar uchun

10 daqiqagacha
3 daqiqagacha
3 daqiqagacha

Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?

Ovozlar: tasdiqlansin.

RAIS: kun tartibini tasdiqlash to'g'risida taklif bo'ldi. Uni ovozga qo'yaman.

Tarafdorlar 65 nafar

Qarshilar – yo'q.

Betaraflar – yo'q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o'tamiz.

KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

I. 2021/2022 o‘quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo‘nalishi bo‘yicha:

1. Universitetda yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘lim-tarbiya jarayonlarida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to‘g‘risida.

ESHITILDI: O.X. Xamidov (universitet rektori, kengash raisi) Universitet nufuzini yanada oshirish, ta‘lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan ishlar, xorijiy hamkorlar bilan uchrashuvlar, galdagi vazifalar to‘g‘risida kengash a‘zolariga tahliliy ma‘lumotlar berdi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda universitetning ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish, davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e‘tiboriga yetkazilishini ta‘minlash, hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarining keng muhokamasida faol ishtirok etish, innovatsion va texnologik g‘oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ishlab chiqish, yetakchi mutaxassislar, faol tadbirkorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra suhbatlarini doimiy ravishda o‘tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish, ularning ijrosini nazorat qilish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalar belgilab olindi.

Har bir bo‘lim va har bir yo‘nalish ma‘ullariga tegishli vazifalar belgilab berildi. Universitetda ta‘lim-tarbiya sifatini yanada oshirish, talabalarning dars jarayonlarigida faol ishtirokini to‘liq ta‘minlash, borasidagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, fakultet ma‘ullarining e‘tiborini kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, kengash raisi O.X. Xamidovning “Universitetda yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘lim-tarbiya jarayonlarida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to‘g‘risida” gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet nufuzini yanada oshirish, ta‘lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida belgilangan vazifalar barcha professor-o‘qituvchilarga yetkazilsin.

3. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.v.b. R.G‘. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

II. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:

2. 2021/2022 o‘quv yili kuzgi semestri o‘qitilgan fanlardan akademik qarzdor talabalar va ular bilan olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida

ESHITILDI: R.Jumayev (O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b.) kengash a‘zolariga 2021/2022 o‘quv yili kuzgi semestri o‘qitilgan fanlardan akademik qarzdor talabalar va ular bilan olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida axborot berdi.

Hozirgi kunda universitet talabalar kontingenti 24 324 nafarni, jumladan, 23020 nafari bakalavriat, 1304 nafari magistratura talaba tahsil olib, ularning 16080 nafari bakalavriat kunduzgi,

5063 nafari sirtqi, 775 nafari kechki, 1102 nafari 2-mutaxassislik hamda 1304 nafari magistratura bosqichida o‘qimoqda. Xorijiy talabalarning umumiy soni 282 nafarni tashkil etadi.

T.r.	Ta’lim bosqichi	Bakalavr (kunduzgi)	Bakalavr (sirtqi)	Bakalavr (kechki)	Bakalavr (2-mut)	Magistratura
1.	1-kurs	2999	548	356		791
2.	2-kurs	5703	2091	340	671	513
3.	3-kurs	4399	1764	79	345	
4.	4-kurs	2979	660		86	
	Jami	16080	5063	775	1102	1304

2021-2022 o‘quv yilida kredit-modul tizimi asosida 14 012 nafar talaba tahsil olib, ularning 8 702 nafari bakalavriat kunduzgi, 2 639 nafari sirtqi, 696 nafari kechki, 671 nafari 2-mutaxassislik hamda 1304 nafari magistratura bosqichida o‘qimoqda.

2022-yil 15-aprel holatida 2198 nafar talaba (7123 ta fandan) 1-semestrda o‘qitilgan fanlardan akademik qarzdor hisoblanadi. Quyidagi jadvalda akademik qarzdor talabalar fakultetlar kesimida keltirilgan:

2022-yil 15-aprel holatida qarzdor talabalar haqida ma’lumot.

№	Fakultet nomi	Qarzdor talabalar soni		
		UNIWORK	HEMIS	Fakultetlar bergan
1	Magistratura bo‘limi	29	463	0
2	Sirtqi(maxsus sirtqi) bo‘lim	144	3064	0
3	Fizika - matematika fakulteti	63	178	7
4	Tabiiy fanlar fakulteti	50	50	52
5	Filologiya fakulteti	43	603	45
6	Xorijiy tillar fakulteti	267	593	514
7	Tarix va madaniy me’ros fakulteti	4	53	2
8	Pedagogika fakulteti	36	285	30
9	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti	144	75	14
10	Jismoniy madaniyat fakulteti	42	531	43
11	Iqtisodiyot va turizm fakulteti	501	981	636
12	San’atshunoslik fakulteti	304	252	182
13	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti	16	334	3
14	Qo‘shma ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish	1	0	0
15	Axborot texnologiyalari fakulteti	41	456	39
		1685	7918	1567

2022-yil 15-aprel holatida qarzdor talabalar haqida ma’lumot. (UNIWORK)

№	Fakultet	Talabalar soni	Guruhlar soni	Qarzdor talabalar soni	Umumiy qarzdorlik
1	Magistratura bo‘limi	1263	59	29	87
2	Sirtqi(maxsus sirtqi) bo‘lim	4894	218	144	831

3	Fizika - matematika fakulteti	1340	55	63	179
4	Tabiiy fanlar fakulteti	938	41	50	96
5	Filologiya fakulteti	2080	89	43	87
6	Xorijiy tillar fakulteti	2380	169	267	492
7	Tarix va madaniy me'ros fakulteti	1389	60	4	16
8	Pedagogika fakulteti	894	58	36	57
9	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti	1669	128	144	272
10	Jismoniy madaniyat fakulteti	1481	73	42	225
11	Iqtisodiyot va turizm fakulteti	2215	125	501	1142
12	San'atshunoslik fakulteti	1073	43	304	711
13	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti	1302	62	16	49
14	Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish	303	25	1	1
15	Axborot texnologiyalari fakulteti	814	29	41	81
		24035	1234	1685	4326

**2022-yil 15-aprel holatida qarzdor talabalar haqida ma'lumot.
(kurslar kesimida)**

№	Fakultet	1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs	Jami
1	Magistratura bo'limi	20	9			29
2	Sirtqi(maxsus sirtqi) bo'lim*	3	66	58	17	144
3	Fizika - matematika fakulteti	30	28	4	1	63
4	Tabiiy fanlar fakulteti	29	4	8	9	50
5	Filologiya fakulteti	17	10	14	2	43
6	Xorijiy tillar fakulteti	55	82	108	16	261
7	Tarix va madaniy me'ros fakulteti	2		2		4
8	Pedagogika fakulteti		4	24	8	36
9	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti		59	40	45	144
10	Jismoniy madaniyat fakulteti	1	23	8	10	42
11	Iqtisodiyot va turizm fakulteti	207	136	133	25	501
12	San'atshunoslik fakulteti	71	82	93	58	304
13	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti	7	5	4		16
14	Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish*	1				1
15	Axborot texnologiyalari fakulteti	12	7	17	5	41
		455	515	513	196	1679

* Mazkur bo'limlarda talabalarni fanga biriktirish jarayonlari to'liq amalga oshirilmaganligi sababli, fanlardan qarzdor talabalar haqida ma'lumotlar to'liq olinmagan.

** 2-mutaxassislik talabalari (440 nafari akademik qarzdor) inobatga olinmagan

<i>Hemis tizimida 2021-2022-o'quv yili Kuzgi jarayonidan qarzdor talabalar soni</i>		
<i>№</i>	<i>Fakultet nomi</i>	<i>Qarzdor talabalar soni</i>
1	<i>Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limi</i>	3064
2	<i>Iqtisodiyot va turizm</i>	981
3	<i>Filologiya</i>	603
4	<i>Xorijiy tillar</i>	593
5	<i>Jismoniy madaniyat</i>	531
6	<i>Magistratura bo'limi</i>	463
7	<i>Axborot texnologiyalari</i>	456
8	<i>Agronomiya va biotexnologiya</i>	334
9	<i>Pedagogika</i>	285
10	<i>San'atshunoslik</i>	252
11	<i>Fizika-matematika</i>	178
12	<i>Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim</i>	75
13	<i>Tarix va madaniy meros</i>	53
14	<i>Tabiiy fanlar</i>	50
	JAMI	7918

Fakultet nomi	Qizil	Sariq	Yashil	Izoh
Axborot texnologiyalari	2	35	2	
Fizika-matematika	5		2	
Tabiiy fanlar	6	8	38	
Tarix		1	1	
Filologiya	2	2	41	
Jismoniy madaniyat	16	10	17	
Agronomiya va biotexnologiya	3			
Pedagogika	1	24	5	
San'atshunoslik	22	155	5	
Xorijiy tillar	49	465		
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim	13		1	
Iqtisodiyot va turizm	73	219	344	
JAMI:	192	919	456	

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. 2021/2022 o'quv yili kuzgi semestri o'qitilgan fanlardan akademik qarzdor talabalar va ular bilan olib borilayotgan ishlar to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'. Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2. 2021/2022 o'quv yili kuzgi semestri o'qitilgan fanlardan akademik qarzdor talabalar va ular bilan olib borilayotgan ishlar bo'yicha o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'. Jumayev hisoboti holati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin;

3. Universitetda faoliyat yuritayotgyn HEMIS va UNIWORK ta'lim platformalariga kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan talabalarining baholarini kiritish to'liq ta'minlansin (mas'ullar: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, nazorat: o'quv-uslubiy boshqarma, muddat 2-kun);

4. Fakultetlardagi 2021/2022 o'quv yili kuzgi semestri o'qitilgan fanlardan akademik qarzdor talabalarining ota-onalarini chaqirgan holda ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish, amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish. Tegishli fanlardan komissiya tashkil qilgan holda 3-4- kurs talabalar uchun imtihonni sifatli tashkil etish. (mas'ullar: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, nazorat: o'quv-uslubiy boshqarma)

5. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

III. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmleens nazorat” tizimini yo‘nalishi bo‘yicha:

3.1. Universitetda professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishini odini olish to'g'risida

ESHITILDI: Yo. K. Quliyev (Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmleens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i) kengash a'zolariga Universitetda professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishini odini olish to'g'risida axborot berdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar tahliliga ko'ra, talaba hamda professor-o'qituvchilar orasida korrupsion huquqbuzarliklarni vujudga kelishiga dars mashg'ulotlarining o'z vaqtida va sifatli darajada o'tilmasligi, fan o'qituvchisi tomonidan talabalarni qat'iylik bilan nazorat qilinmasligi, professor-o'qituvchilar darslarini assistant o'qituvchilar yoki magistrlar tomonidan o'tilishi kabi holatlar sabab bo'lmoqda. Buning natijasida, talabalar yetarli bilim olmaganligi oqibatida o'qituvchilarning ijobiy baho qo'yish evaziga tamagirlik qilish holatlari sodir bo'lishiga olib kelmoqda.

Komplaens nazorat bo'limi “Talaba-yoshlar klubi” a'zolari tomonidan ta'lim sifatini oshirish, dars jarayonlarining o'z vaqtida o'tilishini nazorat qilish maqsadida amalga oshirilgan ishlar natijasida, so'ngi paytlarda 2-smenada 3-4 juftlik darslari hamda kechki smenada darslar to'liq o'tilmayotganligi, darslardan talabalarga javob berib yuborilayotganligi aniqlanmoqda.

Universitetda professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishini odini olish talabalar orasida korrupsiyaga qarshi toqatsizikni shakllantiruvchi tanlovlar tashkil etish, tanlov g'oliblarining munosib taqdirlanishini ta'minlash.

Universitetda “Korrupsiyaga qarshi kurash” bo'yicha o'quv kursi tashki etish hamda faoliyat olib borayotgan har bir professor-o'qituvchini ushbu kursda o'qitilishini ta'minlash. Bu orqali professor-o'qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat “Komplaens-nazorat” tizimi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi nizom, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha siyosat, korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish tartibi, korrupsiyaga barham berishda xaqaro va mahalliy tajriba kabi qator tushunchalar haqida ma'lumotlarni shakllantirish zarurligi haqida gapirib o'tdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmleens nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Yo. K. Quliyevning Universitetda professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishini odini olish to'g'risida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetda professor-o'qituvchilar hamda talabalar orasida korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishini odini olish, talabalar orasida korrupsiyaga qarshi toqatsizlikni shakllantiruvchi tanlovlar tashkil etilib, tanlov g'oliblarining munosib taqdirlanishi ta'minlansin
3. Mazkur qarorning ijro nazorati universitet "Kopmlaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Yo. K. Quliyev zimmasiga yuklatilsin

3.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyudagi 6257-son Farmoniga ko'ra universitet fakultetlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida

ESHITILDI: Yo. K. Quliyev (Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopmlaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i) kengash a'zolariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyudagi 6257-son Farmoniga ko'ra universitet fakultetlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida axborot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "**Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish to'g'risida**"gi 6257-son Farmoni bilan Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etilgan.

Shu munobat bilan, universitet fakultetlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish. Bunda, korrupsiya davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligini professor-o'qituvchilar va talabalar ongiga singdirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida OAV bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish reyting baholash tizimining asosiy shartlari etib belgilandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, universitetda aprel-may oylari davomida professor-o'qituvchilar va talabalar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va halollik mavzusiga oid har bir fakultetda kafedralar kesimida davra suhbatlari, seminar va uchrashuvlar o'tqazilishini tashkillashtirish hamda OAVda yoritish haqida topshiriqlar berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopmlaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Yo. K. Quliyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyudagi 6257-son Farmoniga ko'ra universitet fakultetlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetda aprel-may oylari davomida professor-o'qituvchilar va talabalar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va halollik mavzusiga oid har bir fakultetda, kafedralar kesimida davra suhbatlari, seminar va uchrashuvlar o'tqazilishi tashkillashtirilib, OAVda yoritilsin.

3. Mazkur qarorning ijro nazorati universitet "Kopmlaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Yo. K. Quliyev zimmasiga yuklatilsin.

IV. Raqamli iqtisodiyot va inson resurslarini boshqarish markazi yo'nalishi bo'yicha: Buxoro davlat universiteti faoliyatini bosqichma-bosqich to'liq raqamlashtirish hamda «Uniwork» tizimi orkali ijro intizomini ta'minlash to'g'risida

ESHITILDI: B.Adizov (Raqamli iqtisodiyot va inson resurs larini boshqarish markazi rahbari) kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti faoliyatini bosqichma-bosqich to'liq raqamlashtirish hamda «Uniwork» tizimi orkali ijro intizomini ta'minlash to'g'risida axborot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli hamda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoniga muvofiq "Raqamli universitet" konsepsiyasiga asosan oliygohning barcha faoliyat yo'nalishlarini qamrab oluvchi "Uniwork" elektron tizimi (keyingi o'rinlarda "tizim" deb yuritiladi) orqali universitet bo'limlari, fakultet dekanatlari va kafedralari ish faoliyatini to'liq tashkil etish, quyi bo'g'indan so'raladigan hisobotlarni qisqartirish, ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yish, oshkoralikni ta'minlash hamda kelib chiqishi mumkin bo'lgan korrupsiogen holatlarning oldini olish, shuningdek, muassasa tomonidan pullik qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni yanada kengaytirish va rivojlantirish zarurligi haqida o'z fikrini bayon etdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash raisi O.X.Xamidov ham bugungi kunda OTM da amalga oshirilayotgan ishlar, ularning dolzarbligi, kadrlarga qo'yilayotgan talablar, zamonaviy mutaxassislarini yetishtirib chiqarish masalalari bugun o'z yechimini kutayotgan muammo ekanligini ta'kidlab o'tdi va universitet faoliyatini bosqichma-bosqich to'liq raqamlashtirish hamda «Uniwork» tizimi orqali ijro intizomini ta'minlash tug'risida buyruq ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli ma'sullarga ko'rsatmalar berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Raqamli iqtisodiyot va inson resurs larini boshqarish markazi rahbari B. Adizovning Buxoro davlat universiteti faoliyatini bosqichma-bosqich to'liq raqamlashtirish hamda «Uniwork» tizimi orkali ijro intizomini ta'minlash to'g'risida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Buxoro davlat universiteti faoliyatini bosqichma-bosqich to'liq raqamlashtirish hamda «Uniwork» tizimi orkali ijro intizomini ta'minlash tug'risida rektorning buyruqi ishlab chikilsin va ijrosi ta'minlansin.
3. Mazkur qarorning ijro nazorati universitet Raqamli iqtisodiyot va inson resurs larini boshqarish markazi rahbari B. Adizov zimmasiga yuklatilsin

V. Tanlovlar.

5.1. Kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimlariga navbatdagi tanlovlar to'g'risida

ESHITILDI: N.G.Dilova (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida **54** nafar professor o'qituvchilarning ish hujjatlari o'rganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida **27** nafar talabgorlar tanlovdan o'tishga tavsiya etildi. Ularning ro'yxati jadvalda keltirilgan:

Buxoro davlat universiteti				
2021-2022 o'quv yili navbatdan tashqari Kengash				
tanlovida ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilar ro'yxati 21.04.2022y.				
1	Turizim va mexmonxona xo'jaligi kafedrasini mudiri lavozimiga	Ibragimov Nutfillo Salimovich	Buxoronoma 5mart №18 2022	Turizim va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini mudiri v.v.b. (DSc), dotsent
		Tadjieva Sayyoraxon		Servis sohasi iqtisodiyoti

		Uralovna		kafedra dotsenti,
2	Organik va fizkolloid kimyo kafedra mudiri lavozimiga	Tursunov Murod Amonovich	Buxoronoma 5mart №18 2022	Organik va fizkolloid kimyo kafedra professori
		Abduraxmonov Sayfiddin Fayzullayevich		Organik va fizkolloid kimyo kafedra o'qituvchisi,
3	Nemis va fransuz tillar kafedra dotsenti lavozimiga	Ro'ziyev Yarash Bozorovich	Buxoronoma 5mart №18 2022	Nemis va fransuz tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
		Babayeva Vasila Tashpulatovna		Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedra o'qituvchisi
4	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedra dotsenti lavozimiga	Muzaffarova Feruza Baxriddinova	Buxoronoma 8mart №19 2022	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedra katta o'qituvchisi PhD
		Narzullayev Farrux Ashrapovich		Faukltetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedra katta o'qituvchisi
5	Milliy g'oya va manaviyat asoslari kafedra dotsenti lavozimiga	Turdiyev Bexruz Sobirovich	Buxoronoma 5mart №18 2022	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedra o'qituvchisi PhD
		Isaeva Dilbar Abduqodirovna		Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedra katta o'qituvchisi
6	Psixologiya kafedra dotsenti lavozimiga	Eshov Erkin Sattorovich	Buxarskiy vesnik 8mart №19 2022	Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchi
		Safarov Dilmurod Xalimovich		Navoiy viloyat XTXQTMOHM Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedra mudiri
7	Iqtisodiyot kafedra dotsenti lavozimiga	Turobova Hulkar Rustamovna	Buxoronoma 8-mart №19 2022	Iqtisodiyot kafedra katta o'qituvchisi
		Ashurova Muborak Xayrulloevna		Servis sohasi iqtisodiyoti kafedra katta o'qituvchisi
8	Turizm va mehmonxona kafedra dotsenti lavozimiga	Isomov Bekmurot Sayfiddinovich	Buxarskiy vesnik 8-mart №19 2022	Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedra o'qituvchisi
		Fayzieva Sayyora Uralovna		Servis sohasi iqtisodiyoti kafedra dotsenti
9	Buxoro tarixi kafedra dotsenti lavozimiga	Boltayev Azam Hamidovich	Buxarskiy vesnik 8-mart №19 2022	Buxoro tarixi kafedra o'qituvchisi
		Xudoyqulov To'ymurod Bekmurodovich		Buxoro TRBI ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedra dotsenti
10	Jahon tarixi kafedra dotsenti lavozimiga	Rizayev Baxtiyor Nazarboyevich	Buxoronoma 5mart №18 2022	Jahon tarixi kafedrasida o'qituvchi
		Qoryog'diev Zufar Oxunjonovich		Buxoro tarixi kafedrasida o'qituvchi
11	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedra dotsenti lavozimiga	Istamova Shoxida Maqsudovna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchi, fan nomzodi
		Adizova Nigora Baxtiyorovna		Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra o'qituvchisi (PhD)

12	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga	Hazratova Dilshoda Azamovna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasida (PhD) o'qituvchisi
		Raximov Feruz Fazliddinovich		Neft va gaz texnologiyasi fakulteti "Kimyo" kafedrasida o'qituvchisi (PhD)
13	Nemis va fransuz tillar kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga	Hojiyeva Gulchehra Salimovna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Nemis va fransuz tillari kafedrasida o'qituvchisi
		Nabiyeva Zarina Nabiyevna		Gumanitar yo'nalishlarda chet tillar" kafedrasida o'qituvchisi
14	Servis sohasi iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga	Saidova Feruza Kamolovna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasida o'qituvchi
		Aripova Maxliyo Salaxidinovna		Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida o'qituvchisi
15	Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga	Rajabov Oybek Iskandarovich	Buxoronoma 5mart №18 2022	Buxoro tarixi kafedrasida o'qituvchisi
		Majidov Jo'rabek Jalilovich		Jahon tarixi kafedrasida o'qituvchisi
16	Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga	Djalilova Zarnigor Baxodirovna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Ingliz adabiyoti va stilistika" kafedrasida o'qituvchisi
		Baxranova Matluba Axmedovna		BuxDUning Ped. instituti "Xorijiy tillar" kafedrasida ingliz tili o'qituvchisi
17	Musiqqa ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga	Gulov Satridin niyazovich	Buxoronoma 5mart №18 2022	Musiqqa ta'limi" kafedrasida o'qituvchi
		Axtamov Islom Ilxom o'g'li		Musiqqa ta'limi" kafedrasida o'qituvchi
18	Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimiga	Bo'ronova Gulnora Yodgorovna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Axborot texnologiyaalri kafedrasida o'qituvchi
		Norova Fazilat Fayzulloyevna		Axborot texnologiyaalri kafedrasida o'qituvchi
19	Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi lavozimiga	Qayimov Laziz Mirzo o'g'li	Buxoronoma 5mart №18 2022	Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi
		Yarashov Mardon Jobir o'g'li		boshlang'ich talim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi
20	Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi lavozimiga	Abdullayeva Hilola Nutfilloyevna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Iqtisodiyot» kafedrasida o'qituvchisi
		Dushanova Yulduz Faxriddinovna		Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasida o'qituvchisi
21	Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi lavozimiga	Abdullayeva Feruza Nurilloevna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi
		Aslanova Nozima Xakimovna		Buxoro viloyati XTXQTMOHM boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida o'qituvchisi
22	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasida kafedrasida dotsenti lavozimiga	Nurutdinova Feruza Muidinovna	Buxoronoma 5mart №18 2022	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasida (PhD) o'qituvchisi
		Majidov Abdunabi Amonovich		Buxoro davlat tibbiyot instituti "Biokimyo" kafedrasida (PhD) dotsenti
23	Rus tili va adabyot	Murtazaeva Feruza	Buxoronoma	Rus tili va adabyot kafedrasida

	kafedra dotsenti lavozimiga	Rashitovna	5mart №18 2022	karta qituvchisi f.f.f.d (PhD)
		Gafurov Baxtiyor Zakirovich		Buxoro TI O`zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika va psixologiya” kafedra kata uqituvchisi f.f.f d (PhD)
24	Ekologiya va geografiya kafedra katta o`qituvchisi lavozimiga	Adizova Hamida Raximovna	Buxoronoma 8mart №19 2022	Ekologiya va geografiya kafedra o`qituvchisi
		Norova Yulduz Tursunovna		Buxoro shahar 35 maktab o`qituvchisi
25	Jismoniy madaniyat nazariyasi kafedra o`qituvchisi lavozimiga	Safarov Dilmurod Zoir o`g`li	Buxoronoma 5mart №18 2022	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida o`qituvchi
		Xamroyev Behruz Xalimovich		BuxDUning Ped.instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida o`qituvchi
26	Ingliz tilshunosligi kafedra o`qituvchisi lavozimiga	Nazarova Navbahor Ahrorovna	Buxoronoma 8mart №19 2022	Ingliz tilshunosligi kafedrasida o`qituvchi
		Rabiyeva Mohidil G`ayratovna		Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida o`qituvchi
27	Axborot texnologiyalar kafedra o`qituvchisi lavozimiga	Adizova Zuhro Ma`ruf qizi	Buxoronoma 5mart №18 2022	Axborot texnologiyalari kafedrasida o`qituvchi
		Ismoilova Ma`mura Murot qizi		NKMK AJ Geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Kadrlar va xodimlar tayyorlash buyicha inspektor lavozimida ishlaydi
28	Ekologiya va geografiya kafedra katta o`qituvchisi lavozimiga	Qodirov Abdulla Ahmadovich va	Buxoronoma 5mart №18 2022	Ekologiya va geografiya kafedra o`qituvchisi
		Rahmonova Sanobar Jabborovna		Shofirkon tuman 4- maktab geografiya fani o`qituvchisi

Ushbu masala bo`yicha kengash a`zolari o`z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Muhokama so`ngida universitet rektori, kengash raisi O.Xamidov yuqorida tanlov natijalarini tasdiqlash uchun ovozga qo`ydi.

Rozilar - 69 nafar

Qarshilar - yo`q

Betaraflar - yo`q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Kengash kotibi N. Dilovanning kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o`qituvchi va o`qituvchi lavozimlariga tanlovlar to`g`risida bergan axboroti ma`lumot uchun qabul qilinsin.
2. Yuqorida tanlovdan o`tgan talabgorlarning 5 yil muddatda kafedra professori, dotsenti, katta o`qituvchi va o`qituvchi lavozimlariga saylanganligi ta`kidlansin.
3. Mazkur qarorning ijro nazorati universitet kengashi kotibi N.G. Dilova zimmasiga yuklatilsin.

VI. Turli masalalar.

6.1. Buxoro davlat universitetida Ilm-fan va innovatsiyalarni 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko`rsatkichlarini tasdiqlash to`g`risida

Buxoro davlat universitetida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'at Kengashining 2022-yil 14-martda o'tkazilgan yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan universitet rektorining 2022-yil

25-martdagi 160-U-sonli buyrug'i va chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Universitetda ilmiy salohiyatni oshirish hamda ilmiy tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 14 ta ixtisoslik bo'yicha 8 ta ilmiy kengashlar faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur kengashlarda ixtisoslik fanlaridan malakaviy imtihonlar, chet tili (ingliz, fransuz, nemis) hamda "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlari" fani bo'yicha maxsus imtihonlarni qabul qilish bo'yicha imtihon komissiya tarkibi shakllantirilib, Oliy attestatsiya komissiyasiga taqdim etildi. Universitet ilmiy salohiyati 2021-yil 31-dekabr xolatiga nisbatan 2022-yil 19-aprel holatida 0,8 foizga oshirildi.

Universitet professor-o'qituvchilari "Scopus", "Web of Science", "Google Scholar" xalqaro e'tirof etilgan bazalardagi ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish va dissertatsiya ishiga tegishli ma'lumotlarni yuklab olish bo'yicha ilmiy seminarlar tashkil etilgan. Shuningdek, haftaning har chorshanba kuni shaxsan doktorantlar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning muammolarini hal qilish tizimini yaratish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazilib kelinmoqda.

Xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra professor-o'qituvchilarning ilmiy maqolalariga ("Scopus", "Web of Science", "Google Scholar" yoki boshqa xalqaro e'tirof etilgan bazalarda mavjud bo'lgan jurnallar bo'yicha) iqtiboslar sonini yildan yilga oshirib borish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda universitet professor-o'qituvchilarning «Xirsh» indeksi (h-indeks) 3 va undan yuqori 97 ta, 5 va undan yuqori 102 ta, 10 va undan yuqori 36 ta, 20 va undan yuqori 11 ta, 35 va undan yuqori 1 tani tashkil etadi.

2022-yil 19-aprel holatida universitetda faoliyat olib borayotgan 11 nafar mustaqil izlanuvchi va tayanch doktorantlar falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildilar.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i G.T. Zaripovning "Buxoro davlat universitetida Ilm-fan va innovatsiyalarni 2026-yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot" axboroti ma'lumot uchchun qabul qilinsin.

2. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tanlovlarda barcha professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarning ilmiy loyihalar bilan faol ishtirok etishi ta'minlansin. (IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari)

3. Doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga dissertatsiya himoyalarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy rahbarlar va ilmiy maslahatchilarni rag'batlantirish hamda har chorakda kamida bir marta shaxsan doktorantlar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning muammolarini hal qilish tizimini yaratish choralari ko'rilsin. (IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari)

4. Universitetda faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy kengashlarga normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq, dissertatsiyalar muhokamasida noxolis ekspertiza va ko'chirmachilikka yo'l qo'yilishini oldini olish, tegishli ilmiy-tashkiliy ishlarni talab darajasida amalga oshirish hamda oyiga kamida 2 ta dissertatsiya himoyasini o'tkazishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilsin. (IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va Kengashlar raislari)

5. Professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun "Scopus", "Web of Science" va boshqa xalqaro nufuzli ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida indekslanuvchi nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqola nashr etishga alohida e'tibor qaratilsin. (IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari)

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayev zimmasiga yuklatilsin.

6.2. Kafedra professor-o'qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

6.2.1. Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti Xolliova Nozima Nematilloevnaning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida

ESHITILDI: N.G.Dilova (Kengash kotibi, p.f.f.d.,(Ph.D)): - Kengash a'zolariga dotsent ilmiy unvoniga talabgor Xolikova Nozima Nematilloevnaning O'zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyqligini ta'kidlab, tavsiya beruvchi kafedraning 2021-yil 23-sentyabrdagi 4-yig'ilishi, fakultetining 2021-yil 23-sentyabrdagi 2-yig'ilishi va Universitet ilmiy-texnik Kengashining 2021-yil 28-sentyabrdagi 2 - yig'ilishi bayonidan ko'chirmalar mavjudligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, kengash kotibi Xolikova Nozima Nematilloevnaning 50 dan ortiq ilmiy ishlari nashr etilganligi, shulardan 7 ta uslubiy qo'llanma qo'llanma, 1 ta monografiya, 1 ta lug'at 1 ta badiiy roman tarjima, 15 dan ortiq maqola xorijiy jurnallarda va 10 dan ortiq OAK e'tirofidagi jurnallarda, 50 dan ortiq maqola xalqaro va respublika anjumanlarida chop etilganligi,

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti v.b. Xolikova Nozima Nematilloevna OAKning dotsent ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan talablarini to'liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a'zosida 70 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

Talabgor: Xolikova Nozima Nematilloevnaga 69 kishi "rozi", "qarshi" va buzilgan varaqalar yo'q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:

1. ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti v.b. Xolikova Nozima Nematilloevna dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etilsin.

2. N.N.Xolikovaning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2021-yil 16-sentyabrgacha)

6.3. Sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan Turkmaniston fuqarosi bo'lgan talabalarning hamda bugungi kunda Turkmanistonda bo'lib turgan, O'zbekiston Respublikasiga kelish imkoniyati bo'lmagan kunduzgi shaklda tahsil olayotgan talabalar o'qishini masofaviy shaklda qoldirish to'g'risida.

ESHITILDI: Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor Jurayev A.T.: Bugungi kunda universitetda 281 nafar xorijlik fuqarolar tahsil olmoqda. Bulardan 2 nafari Tojikiston fuqarosi, 1 nafari Rossiya va 278 nafari Turkmaniston fuqarolari hisoblanadi. Talabalarning 13 nafari sirtqi ta'lim shaklida tahsil oladi. Shuningdek, 3 nafar kunduzgi shaklda tahsil oladigan talabalar pandemiya munosabati bilan Turkmaniston Respublikasiga brogan va chegara punkti yopiqligi sabab universitetga kela olmayapti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi Oliy ta'lim muassasalarida sirtqi(maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta'limni tashkil etish to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqidagi 930-son qarorining 17 va 18 bandida quyidagicha belgilangan:

17. O‘quv sessiyasigacha bo‘lgan muddatda sirtqi (maxsus sirtqi) ta‘limda o‘qish mustaqil, jumladan, masofadan turib ta‘lim olish shaklida amalga oshiriladi. Bunda talaba metodik ko‘rsatmalardan foydalangan holda ishchi o‘quv rejada semestr uchun rejalashtirilgan fanlarning dasturlarida belgilangan mavzularni mustaqil o‘zlashtiradi.

18. Talaba fan bo‘yicha topshiriqlarni bajargandan so‘ng, uni fan o‘qituvchisiga belgilangan muddatlarda (odatda, masofadan turib Internet orqali) yuboradi hamda qayddan o‘tkazadi. Fan o‘qituvchisi talaba yuborgan materiallarni tekshirib, oraliq ishi sifatida baholaydi. Fan o‘qituvchisi mavzular bo‘yicha navbatdagi topshiriqlar va ko‘rsatmalarni yuborishi, shuningdek, on-layn rejimida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishi mumkin.

Yuqoridagi qarordan hamda Turkmaniston fuqarosi hisoblangan talabalarning holatidan kelib chiqib, ularning o‘qishini onlayn shaklda olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:

1. BuxDU xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori A.T. Jurayevning ma‘lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. 13 nafar sirtqi ta‘lim shaklida tahsil oluvchi va 3 nafar kunduzgi shaklda tahsil oladigan talabalarning o‘qishini onlayn shaklda davom ettirishga ruxsat berilsin.

3. Sirtqi ta‘lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning o‘qishini masofaviy shaklda tashkil etish, nazorat qilish va belgilangan tartibda olib borish Sirtqi(maxsus sirtqi) bo‘lim boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

4. Fakultetlarda tahsil olayotgan hozirda Turkmaniston Respublikasi bo‘lib turgan talabalarning o‘qishini masofaviy shaklda tashkil etish, nazorat qilish va belgilangan tartibda olib borish yo‘nalishiga muvofiq fakultet dekani zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror ijrosi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

6.4. Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha 2021-2022 o‘quv yili uchun tasdiqlangan malaka talablari, o‘quv va ishchi o‘quv rejalari, o‘quv dasturlarini taqdim etish to‘g‘risida

ESHITILDI: R.Jumayev (O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b.) kengash a‘zolariga “Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha 2021-2022 o‘quv yili uchun tasdiqlangan malaka talablari, o‘quv va ishchi o‘quv rejalari, o‘quv dasturlarini taqdim etish to‘g‘risida” axborot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ta‘lim vazirining 2022-yil 7-apreldagi 87-02-431-son xatiga asosan vazirlikning 2021-yil 19-oktabrdagi “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari. Asosiy qoidalari” O‘zbekiston Respublikasining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 35-2021-son buyrug‘iga muvofiq vazirlik huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish markazida idoraviy bo‘ysunuv va mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar barcha Oliy ta‘lim muaassasalaridagi har bir bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tasdiqlangan malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari saqlanishi zarurligini inobatga olib, 2021-2022 o‘quv yili uchun tasdiqlangan malaka talablari, o‘quv va ishchi o‘quv rejalari, o‘quv dasturlarini tasdiqlangan shakldagi pdf variantini Oliy ta‘limning rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish markaziga **2022-yilning 20-aprelida** taqdim etish so‘ralgan edi.

Muddat o‘tgan bo‘lsada, ushbu topshiriqni bajarishda kafedralar sustkashlikka yo‘l qo‘ymoqdalar. Topshiriq 50% ga ham bajarilmagan. Ba‘zi bir kafedralar esa umuman birorta hujjatni ham tayyorlab berishmagan.

Ushbu topshiriqni sifatli va belgilangan talablar asosida bajarish bo‘yicha kengash a‘zolaridan taklif va tegishli ko‘rsatma berishingizni so‘rayman.

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi kengash a‘zolaridan takliflar so‘radi.

Kengash a'zolari ushbu masala bo'yicha takliflarini berishdi. Kafedra mudirlarining muammolari eshitildi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.Jumayevning "Bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 2021-2022 o'quv yili uchun tasdiqlangan malaka talablari, o'quv va ishchi o'quv rejalari, o'quv dasturlarini taqdim etish to'g'risida" gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Barcha kafedra mudirlariga:

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 2021-2022 o'quv yili uchun tasdiqlangan malaka talablari, o'quv va ishchi o'quv rejalari, o'quv dasturlarini belgilangan muddatda taqdim etish chorasi ko'rilsin. (Muddat **23-aprel soat 16:00** gacha)

3. Ushbu topshiriqni o'z vaqtida bajarmagan ma'sullarga nisbatan tegishli intizomiy chora ko'rilsin. (Ma'sullar: o'quv ishlari bo'yicha prorektor, xodimlar bo'limi boshlig'i, yurist, kasaba uyushma qo'mitasi...)

4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

6.5. Doktorlik (PhD, DSc) dissertatsiya mavzusini tasdiqlash va ilmiy rahbarini tayinlash to'g'risida.

6.5.1. Buxoro davlat universiteti Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasida tayanch doktoranti N.N. Xayrullayevaning iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusini tasdiqlash to'g'risida.

ESHITILDI: N.G. Dilova (BuxDU kengashi kotibi) – kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasida tayanch doktoranti N.N. Xayrullayevaning i.f.d., prof. O.X.Xamidov rahbarligida iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusini "Buxoro viloyatida ekoturistik destinatsiyalardan oqilona foydalanishning tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish" deb nomlanganligini (08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati) ixtisosligi belgilash va tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, ilmiy ahamiyati iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiyasi darajasiga moslab tuzilganligi tasdiqlandi. Ilmiy texnik kengashning 2022-yil 19-apreldagi 2-navbatdan tashqari yig'ilish bayonini o'qib eshittirdi.

Kengash raisi yuqorida so'ralgan tayanch doktoranti N.N. Xayrullayevaning iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiyasi mavzusini tasdiqlash to'g'risidagi taklifini ovozga qo'ydi.

Universitet kengashi a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar.

Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU kengashi kotibi N.G. Dilovaning Buxoro davlat universiteti Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasida tayanch doktoranti N.N. Xayrullayevaning iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasida tayanch doktoranti N.N. Xayrullayevaning iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusini "Buxoro viloyatida ekoturistik destinatsiyalardan oqilona foydalanishning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish" tarzida (08.00.17-Turizm va mehmonxona faoliyati) tasdiqlansin.

6.6. Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida.

ESHITILDI: A.T.Jo'rayev (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) 2021-yilda Buxoro davlat universitetida **44 nafar xorijlik** professor-o'qituvchi ta'lim faoliyatini olib bordi. Pandemiya tufayli ularning faqatgina bir necha nafari an'anaviy shaklda dars bergan bo'lsa, aksariyati bilan onlayn shaklda dars berish bo'yicha mehnat shartnomasi imzolandi. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, AQShning Fulbrayt dasturi, shuningdek qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ma'ruza o'qigan professor-o'qituvchilardan tashqari, 35 nafardan ortiq xorijlik o'qituvchilar uchun soatbay ish haqi BuxDU byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **har bir soat uchun 10-15 dollar** atrofida belgilandi. Taklif qilingan xorijlik o'qituvchilarning barchasi jahon akademik reytinglarida **yuqori 1000 talikka kiruvchi OTMlardan** bo'lishi ta'minlandi. Ular qatorida Vatel mehmonxona va turizm biznes maktabi (Fransiya), Sasseks universiteti (Angliya), Myunster universiteti (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya) kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. **Jami 2,5 ming soatga** yaqin dars xorijlik professor-o'qituvchilar tomonidan o'tildi.

2021-2022 o'quv yilida 01.02.2022 yil holatida 16 nafar professor-o'qituvchi dars jarayonlarida ishtirok etmoqda. Yil oxirigacha ularning soni **60 nafarga** etkazilishi rejalashtirilgan.

Ekologiya va geografiya kafedrasidan 2021-2022-o'quv yilida dars berish maqsadida Omsk davlat pedagogika universitetidan 1-jadvalga muvofiq o'qituvchi jalb qilinishi rejalashtirilgan.

1-jadval

2021-2022- o'quv yilida dars berish jarayoniga jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxati

№	Taklif etilayotgan xorijiy professor-o'qituvchining F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi, ilmiy unvoni	2021 yilgi jahon reytinglari dagi o'rni	Qaysi kafedrada dars beradi.	Qaysi fandan dars beradi (ingliz va rus tillarida)	Dars soatlari	Kelishuv asosida to'lanadigan dars soatlari ish haqi, AQSh dollarida	Kunlik, sutkalik, transport xarajatlari AQSh dollarida
1	Bolshaniq Petr Vladimirovich	Omsk davlat pedagogika universiteti, PhD	-	Ekologiya va geografiya	Geografiya va geografiya o'qitish metodikasi	30	300	1560

Kengash raisi "Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" gi taklifini ovozga qo'ydi.

Universitet kengashi a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori A.Jo'rayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning ta'lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga jalb etilishi universitetda ta'lim va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlansin.
3. Universitetga taklif etiluvchi xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning yuqori malakali bo'lishi shartligi ta'kidlab o'tilsin. Ularga to'lanadigan ish haqi ish haqi soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida o'zaro kelishiladigan valyutada, O'zbekiston qonunchiligida belgilangan soliq va to'lovlar to'langanidan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri naqd ko'rinishda yoki pul ko'chirish orqali

mutaxassisning xorijda yoki O'zbekistonda ochilgan bank hisobraqamiga (plastik kartasiga) o'tkazib berilishiga ruxsat berilsin. Ish haqqi universitet kengashining 2021/2022 o'quv yili 7-son yig'ilish bayoni asosida hisoblansin.

4. Professor-o'qituvchining kunlik, sutkalik, ikki tomonga aviachiptalarni sotib olish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son asosida qoplansin.

5. 1-jadvalda taqdim etilgan, dars berish maqsadida taklif etilishi belgilangan professor-o'qituvchilarga dars o'tishi uchun ruxsat berilsin. Darslarni o'z vaqtida tashkil etish va olib borish vazifasi fakultet o'quv ishlari bo'yicha dekan muovnlari va kafedra mudiriga yuklansin.

6. Ushbu qaror ijrosi Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

6.7. Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasini tayanch doktoranti Axmatova Mohigul Ergash qizi rahbarligida tayyorlangan "Buxoro shahridagi tarixiy obidalarga sayohat qilishda transport xizmatlarining mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani "Olima ayollar" tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanloviga tavsiya etish to'g'risida.

ESHITILDI: G.T. Zaripov (IT, I va IPKTB boshlig'i) – kengash a'zolariga Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasini tayanch doktoranti **Axmatova Mohigul Ergash qizi** rahbarligida tayyorlangan **"Buxoro shahridagi tarixiy obidalarga sayohat qilishda transport xizmatlarining mobil ilovasini yaratish"** mavzusidagi amaliy loyiha to'g'risida ma'lumot berdi.

So'zga chiqdilar: O.O. Sayfulloyev (Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i) Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasini tayanch doktoranti **Axmatova Mohigul Ergash qizi** rahbarligida tayyorlangan **"Buxoro shahridagi tarixiy obidalarga sayohat qilishda transport xizmatlarining mobil ilovasini yaratish"** mavzusidagi amaliy loyihani "Olima ayollar" tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanloviga tavsiya etish to'g'risidagi taklifni qo'llab-quvvatladi.

IT, I va IPKTB boshlig'i axboroti va so'zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, muhokamadagi masala bo'yicha universitet kengashi

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. IT, I va IPKTB boshlig'i **G.T. Zaripovning** axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasini tayanch doktoranti **Axmatova Mohigul Ergash qizi** rahbarligida tayyorlangan **"Buxoro shahridagi tarixiy obidalarga sayohat qilishda transport xizmatlarining mobil ilovasini yaratish"** mavzusidagi amaliy loyihani "Olima ayollar" tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanloviga tavsiya etilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosi IT, I va IPKTB boshlig'i **G.T. Zaripov** zimmasiga yuklatilsin.

6.8. Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limida tashkil etilgan Holon Texnologiyalar Instituti bilan tashkil etilgan "Amaliy matematika" va "Kompyuter bilimlari" yo'nalishlari 3 kurs talabalarining 4 kurs o'qishini sentyabrdan davom ettirish to'g'risida.

ESHITILDI: A.T. Jurayev: (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) Ayni paytda BuxDUda xorijning etakchi 6 ta OTM bilan hamkorlikda 4 ta bakalavriat yo'nalishi hamda 9 ta magistratura mutaxassisligida qo'shma dasturlar amal qilmoqda. Shu jumladan, Fransiyaning VATEL mehmonxona va turizm biznes-maktabi bilan "Xalqaro mehmonxona menejmenti" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida jami 97 nafar talabalar, Isroilning Xolon texnologiya instituti bilan "Amaliy matematika va informatika" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida jami 44 nafar talabalar hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida jami 43 nafar talabalar, Rossiya Federatsiyasining Qozon federal universiteti bilan "Iqtisodiyot" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida jami 96 nafar, talabalar tahsil olmoqda.

Ayni vaqtda Holon Texnologiyalar Instituti (HIT) bilan tashkil etilgan "Amaliy matematika" va "Kompyuter bilimlari" yo'nalishlarida 59 nafari 3-kurs talabalarini hisoblanadi. HIT bilan imzolangan kelishuvlarga ko'ra, talabalar o'qish davomida kamida 3 semestrni Isroilda o'qishlari belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.07.2021 yildagi 421-son qarorining 3-bobi "Qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish" 19-bandida Qo'shma ta'lim dasturlarining o'quv rejasida belgilangan mutaxassislik va ixtisoslik fanlarining kamida 25 foizi xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'qitilishi belgilangan.

Biroq, 59 nafar talabalar ingliz tilini bilish darajasi xorijda ta'lim olish uchun hamkorlar tomonidan ingliz tilida o'tkazilgan intervyu jarayonida qoniqsiz deb baholandi. Shu maqsadda "Amaliy matematika" va "Kompyuter bilimlari" yo'nalishlarida tahsil oluvchi 59 nafar 3-kurs talabalarining o'qishini sentyabrdan davom ettirish maqsadga muvofiq va ingliz tili darajasini talabalarda B2 darajaga chiqarish uchun "Ingliz tili" kurslarini tashkil etish shart. Bu holat kelasi yilda hozirgi ikkinchi kurslarda takrorlanmasligi uchun 2-kurslar uchun ham ingliz tili kurslarini tashkil etish zarur deb hisoblaymiz.

Kengash raisi "Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limida tashkil etilgan Holon Texnologiyalar Instituti bilan tashkil etilgan "Amaliy matematika" va "Kompyuter bilimlari" yo'nalishlari 3 kurs talabalarining 4 kurs o'qishini sentyabrdan davom ettirish to'g'risida" gi taklifini ovozga qo'ydi.

Universitet kengashi a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar.
Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori A.T. Jurayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limida tashkil etilgan Holon Texnologiyalar Instituti bilan tashkil etilgan "Amaliy matematika" va "Kompyuter bilimlari" yo'nalishlari 3-kurs talabalarining o'qishini HITda sentyabrdan davom ettirishiga rozilik berilsin.
3. Talabalarining ingliz tilidan bilim darajasini B2 darajaga oshirish maqsadida bo'limda talabalar uchun bepul ingliz tili kurslari tashkil etilsin.
4. Ingliz tili kurslarini tashkil etish, nazorat qilish Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklatilsin.
5. Talabalarining kurslarda qatnashishi ixtiyoriy bo'lib, qo'shimcha kurslarga qatnashayotganlarga ham imkoniyat yaratib berilsin.
6. Talabalarga sentyabrga qadar ingliz tilidan B2 darajasini olish talabi qo'yilsin va Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'iga talabalar orasida bu masalada tushuntirish ishlarini olib borish vazifasi yuklansin.
7. Ushbu qaror ijrosi o'quv ishlari bo'yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo'yicha **prorektor A.T. Jurayev** zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi: Buxoro davlat universiteti kengashining **navbatdan tashqari yig'ilishi kun tartibiga** kiritilgan barcha masalalar muhokama qilindi va kengash o'z ishini yakunlaydi.

Kengash o'z ishini tugatdi.

BuxDU kengashi raisi

BuxDU kengashi



O.X. Xamidov

N.G. Dilova